

JIZZAX VILOYATI O'RMON XO'JALIGI FAOLIYATI VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Xolmirzayeva Aziza Abdilbase qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Zoologiya va anatomiya kafedrası o'qituvchisi

Annotation: *This article covers the activities of the forestry system of the Jizzakh region and measures for their rational use.*

Keywords: *Forestry, tree, shrub, ixota, conservation areas, Groves, almonds.*

Аннотация: *В данной статье освещается деятельность лесохозяйственной системы Джизакской области и меры по ее рациональному использованию.*

Ключевые слова: *лесное хозяйство, дерево, кустарник, ихота, охрана территории, арки, миндалины.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jizzax viloyati o'rmon xo'jaligi tizimining faoliyati va ulardan oqilona foydalanish chora tadbirlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *O'rmon xo'jaligi, daraxt, buta, ixota, muhofaza maydonlar, archazorlar, bodomzorlar.*

Yer resurslari – jahon yer fondining iqtisodiy foydalanishga yaroqli qismidir. Yer resurslari – jahon yer fondining iqtisodiy foydalanishga yaroqli qismidir. U qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, o'rmon xo'jaligi, shuningdek, shaharsozlik va qishloq aholisining joylanishi, sanoat korxonalarining joylashuvi, transport kommunikatsiyalari va boshqa barcha turdagi inson xo'jalik faoliyati uchun zamin yaratadi. Eng katta maydonlarni qishloq xo'jaligi yerlari (35% dan ortiq), o'rmon va butalar (30%) egallaydi. Yer fondining 3% dan ko'prog'ini xo'jalikning tarmoqlari, sanoat va transport egallagan. Qishloq xo'jalik yerlari o'zining tabiiy xususiyatlari va qishloq xo'jaligida foydalanish maqsadi bilan farq qiladi. Qishloq xo'jaligining asosiy toifalariga haydaladigan yerlar (tizimli haydaladigan va turli qishloq xo'jalik ekinlarini Insoniyat jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yer yuzi mavjud edi, eng muhimi u almashtirib bo'lmaydigan ishlab chiqarish vositasidir. Yer, hudud inson hayotining asosi, poydevori, uning yashash maydonidir, o'z faoliyatini amalga oshiradi. Yersiz odamlar o'rtasida o'zaro munosabat bo'lishi mumkin emas. Qadim zamonlardan beri mamlakatlar o'rtasidagi urushlarning asosiy maqsadi zo'ravonlik bilan begonalarning yerlarini tortib olish xalqlarni o'z yerlaridan chiqarib yuborish bo'lgan. Yer resurslari – jahon yer fondining iqtisodiy foydalanishga yaroqli qismidir. U qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, o'rmon xo'jaligi, shuningdek, shaharsozlik va qishloq aholisining joylanishi, sanoat korxonalarining joylashuvi, transport kommunikatsiyalari va boshqa barcha turdagi inson xo'jalik faoliyati uchun zamin yaratadi. Eng katta maydonlarni qishloq xo'jaligi yerlari (35% dan ortiq), o'rmon va butalar (30%) egallaydi. Yer fondining 3% dan ko'prog'ni xo'jalikning tarmoqlari, sanoat va transport

egallagan. Qishloq xo'jalik yerlari o'zining tabiiy xususiyatlari va qishloq xo'jaligida foydalanish maqsadi bilan farq qiladi. Qishloq xo'jaligining asosiy toifalariga haydaladigan yerlar (tizimli haydaladigan va turli qishloq xo'jalik ekinlarini sog'omlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar 13,9 gektardan 710,4 ming gektarga ko'paygan. Chunki, kelajakda ham aholi o'sishi natijasida ularning yaxshi yashashi va tabiatni muhofaza etish uchun qo'shimcha yer maydonlari ajratilaveradi. 1990-yilda respublika yer fondining 7258,6 gektar maydoni zaxira yerlar bo'lgan bo'lsa 2019-yilda bu ko'rsatkich 9437,7 gektarga yetgan. Bu yerlar jami yer fondining 24,7 foizini tashkil etadi. Toshkent viloyati bo'yicha yer fondi yerlarini tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, eng ko'p ulush boshqa tarmoqlarda ishlatiladigan yerlar 36%, pichanzorlar va yaylovlar 29% ni, ekin yerlari 22% ga, eng kam maydon bo'z yerlar va meliorativ qurilish holatidagi yerlarga to'g'ri keladi. Mamlakatda yerdan foydalanishning asosiy tamoyillarga yerdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish hamda ekin ekiladigan yerlarni muhofaza qilish majburiyati kiradi. Yerni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar tuproq unumdorligini yaxshilash, cho'llanish, sho'rlanish, tuproq eroziyasi va yer ifloslanishining oldini olish choralarini ko'radi. Davlat yerdan foydalanish ustidan qat'iy nazoratni amalga oshiradi, yerdan foydalanishni rejalashtiradi va foydalanilmagan yerlarni hisobga oladi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 6-oktyabrda imzolagan "O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori ijrosi doirasida 2021 yil davomida cho'llanishni oldini olish, eroziyaga qarshi kurashish maqsadida o'rmonlarni qayta tiklash va himoya o'rmonlarini ko'paytirish tadbirlari o'rmon fondi yerlarida jami 620 ming gektardan ortiq maydonda amalga oshirildi.

Inson hayotida daraxtlar shu jumladan, o'rmonlarning ro'li juda kattadir. Ular tirik organizmlarni sof kislorod bilan ta'minlab, havo tarkibidagi karbonat angidridni yutadi. Daraxt va butalar shaharlarni ko'kalamzorlashtirishda, yuzi jazirama o'lkamizda soya-salqin bog'lar tashkil qilishda muhim ahamyatga ega.

Respublikamizda 1935-yil 28-dekabrda tashkil qilingan eng kenja viloyat Jizzax viloyati o'zining takrorlanmas go'zal tabiati, yaylovlardan tortib to cho'l mintaqalarigacha tarqalgan ajoyib o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiat yodgorliklari, ziyoratgohlari bilan mashhurdir.

Jizzax viloyatining maydoni 21,2 ming km² ni tashkil qilib, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydoni 4,8 km² ga teng. Maydonning anchagina qismini 1,8 km² qismi o'rmon va o'rmonchilik bilan bog'liq ekinlar ekiladigan maydondan iborat.

Jizzax viloyatidagi G'allaorol o'rmon xo'jaligi 1949-yilda tashkil qilingan. Uning umumiy yer maydoni 8758,85 gektarga teng. O'rmon bilan qoplangan maydoni 2429,86 gektarga teng, shundan 1249,06 gektari ma'daniy o'rmonzorlardan iborat.

Tutatshmagan o'rmonzorlar 421,46 gektar, pichanzorlar 10 gektar, bog'lar 20,4 gektarni tashkil qiladi.

Zomin o'rmon xo'jaligi 1969-yilda tashkil topgan. Xo'jalik 1970-yildan boshlab 200 gektar yong'oq, 130 gektar bodomzorlar hajmini kengaytirgan. Archazorlarni kengaytirish ishlari ham amalga oshirilgan. 1993-yilga kelib 600 gektar yong'oqzor, 300 gektar bodomzorlar tashkil qilingan. 1993-1996-yillar davomida har yili 75 gektar archazorlar, bodomzorlar, terakzorlar va boshqa mevali hamda manzarali daraxtlar ekilgan.

O'rmon xo'jaligining asosiy vazifasi mavjud o'rmonzorlarni saqlab qolish bilan birga, eroziyaga qarshi o'rmonzorlarni ko'paytirib, daraxtlarni parvarish qilishdan iborat.

Respublikamiz shu jumladan Jizzax viloyati o'rmon xo'jaligi oldiga quydagi vazufalar qo'yilgan:

-o'rmon xo'jaligi yuririlishi darajasini yuksaltirish, iqtisodiy islohotlarni o'tkazishni takomillashtirish;

-muhofaza va ixota o'rmonlari maydonlari ko'payishiga erishish; -
mavjud o'rmonzorlarni asrab-avaylab saqlash va qo'riqlash;

cho'l va sohro zonalarida o'rmonlar tiklanishi va barpo etilishi bo'yicha ishlar hajmini ko'paytirish; -

tog' yonbag'rlari, jar yoqalari va suv havzalari atroflarida muhofaza o'rmonlari barpo etish;

-atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda ishbob yog'och ishlab chiqarishni yo'lga qo'ish.

Ma'limki o'rmon fondi yerlarida umumiy o'rmonzorlar barpo etish hajmining 70-80 foizi o'rmon daraxtlari urug'idan va 20-25 foizi ko'chat ekish usuli bilan barpo qilinadi.

Shu o'rinda tadbqiq etilayotgan innovasion g'oyalardan yana biri o'rmon fondi yerlarida hamda aholi yashash hududlari atroflarini ko'kalamzorlashtirish ehtiyojlari uchun zarur bulgan ko'chatlarni yetkazib berish maqsadida har bir o'rmon xo'jaliklarida intensiv ko'chatxonalar tashkil etish g'oyasidir. Bunda daraxt va butalarning urug'lari maxsus 1 x 5 metr o'lchamli bir nechta kichik-kichik maydonchalarda yerni qazib drenaj bo'lishi uchun tosh, undan keyin yuvilgan daryo qumi, tuproq va gumuslarni aralashtirib urug'larni sepish orqali intensiv ravishda pol ya'ni lizimetr usulida nihollarni undirib olish texnologiyasidan foylanishdir.

Bunda resurslar ancha tejaladi, chunki nihollarni ushbu usulda yetishtirishda ortiqcha yer maydonlari talab etilmaydi, yerlarni texnika bilan haydash, gektarlab sug'orish, ishlov berish kabi ishlar hajmi keskiy kamayadi. Yetishtirilgan nihollar maxsus haydalib tayyorlangan maydonlarga niholxonadan olinib, ko'chat qilib tarbiyalash uchun alohida maydonlarga o'tkaziladi va parvarishlash ishlari olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5742-son farmoni.

2. Абдуллаев Х.А. Ўзбекистон тупроқлари. Тошкент, 1973.

3. Abdullayev S.A., Nomozov Q.X. Tuproq melioratsiyasi. Toshkent, 2011.

4. Bobocho'jayev I., Uzoqov P., Xoliqulov Sh. Tuproqshunoslik. Toshkent. 2011.

5. Ziyomuxammedov A.E. Tuproq organik moddasi va unumdorligi. Toshkent, "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2008.